

“DINIY BAG‘RIKENGLIK – TINCHLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIKNING GAROVI”

Avazxonov Saidismoilxon Avazxon o‘g‘li

O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi

1-bosqich magistrant Islomshunoslik yo‘nalishi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7827215>

O‘zbekistonda davlat va din o‘rtasidagi munosabatlarning belgilanishida asosiy e‘tibor qaratilgan masalalar davlatning dunyoviy tamoyillarini ta‘minlash, fuqarolarning vijdon erkinligi bilan bog‘liq huquq va erkinliklarini kafolatlash, diniy tashkilotlarning qonun doirasidagi faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish hamda jamiyatda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashdan iboratdir.

Bu esa, tinchlikparvar O‘zbekistonda fuqarolarning konstitutsiya va qonunlarda belgilangan huquq va erkinliklaridan emin-erkin foydalanishlariga zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda bag‘rikenglik tushunchasi juda keng ma‘noda ko‘plab joylarda, keng qo‘llanilmoqda.

Bag‘rikenglik bilan barobar ravishda tolerantlik – (yun. tolerantia sabr-toqat) bag‘rikenglik – o‘zgalarning turmush tarzi, xulq atvori, odatlari, his-tuyg‘ulari, fikr-mulohazalari, g‘oyalari va e‘tiqodlariga nisbatan toqatli bo‘lish qo‘llaniladi.

Globalashuv jarayonlari shiddat bilan kechayotgan bir paytda turli madaniyat va dinlarga mansub xalqlar o‘rtasidagi muloqot va hamkorlik, o‘zaro bag‘rikenglik tamoyillarini qaror toptirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘z navbatida onaVatanimizdagi tinch, osoyishta va farovon hayotning qadriga yetish, shu osuda hayotni yanada mustahkamlash uchun har bir inson o‘z hissasini qo‘shib, el-yurt taqdiri, kelajagi uchun daxldorlik tuyg‘usini diliga jo qilib yashashi bugungi kundagi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Hozirgi O‘zbekistonda 130 dan ziyod millat va elatlar o‘zaro ahil, bir oila bo‘lib yashab kelmoqda. Ularning haq-huquqlari qonun bilan belgilab qo‘yilgan.

Bag‘rikenglik o‘zbek xalqining azaliy qadriyati hisoblanib, tarixga nazar tashlansa, qadimdan bir necha xalqlarning yonma-yon birgalikda yashab kelganligi, etnik yoki diniy nizolarning umuman kelib chiqmaganligi yaqqol tarixiy fakt hisoblanadi. Qadim-qadimdan yurtimizda turli madaniyat, til, urf-odatlar, o‘z turmush tarziga ega bo‘lgan turli xalqlar, millatlar qo‘nim topgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida yurtimizga keltirilgan 200 000 dan ziyod bolalarning birortasi yetimxonalarga tushmay, o‘zbek oilalaridan joy topganligi va o‘zbek oilalarining bir burda non taqchil bo‘lgan zamonda, chetdan kelgan




bolalarga non-suv ulashganligi bu chinakam qahramonlikdir. Bag'rikenglikning oliy namunasidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasiga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart" dir. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov: "Ko'p millatli jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, fuqarolar o'ratasida tinchlik va millatlararo totuvlik saqlaganligi mustaqil O'zbekistonning bunyod bo'lishi va rivojlanishining birinchi, boshlang'ich bosqichida qo'lga kiritilgan eng asosiy yutuq bo'ldi" – deb aytgan edi.

O'zbekiston tarixida bag'rikenglik tushunchasini to'la-to'kis ma'noda ochib beruvchi bir qancha tarixiy manbalarning borligi e'tiborni tortadi. Xossatan, Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Amir Temurning "Tuzuklar"i kabi asarlar shular jumlasidandir. Bundan ko'rinadiki, tarixdan turli xalqlar o'rtasida munosabatning odilona bo'lishi, bag'rikenglik asoslariga tayanishi, hamda, insonning aziz va mukarramligi oliy darajaga ko'tarilishi bilan izohlanadi.

So'nngi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlarda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikka bo'lgan e'tiborning yanada ortganligi, gender tengligi munosabatlari, hamda, yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiya etib, ularda bu kabi dunyoqarashga ega bo'lishi uchun dolzarb vazifalar belgilangan. 2017-2021- yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning beshinchi bandi: "Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, o'zaro manfaatli ruhdagi tashqi siyosat yuritishga" mo'ljallangandir.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi Prezidentimiz nutqi o'z mazmun-mohiyati, ahamiyati bilan ishtirokchilar diqqat e'tiborini tortdi. Nutq qisqa bo'lishiga qaramay, davrning eng dolzarb mavzularini qamrab oldi. Xususan, O'zbekistondagi islohotlar, demokratiya, inson huquqlari, yoshlar masalasi, diniy bag'rikenglik, xalqaro xavfsizlik, mintaqaviy hamkorlik, ekologiya, jumladan, Orol muammosi kabi qator global masalalar Assambleya ishtirokchilari va xalqaro ekspertlar hukmiga havola etildi. Avvalo, yoshlarni so'nngi yillarda kuchayib borayotgan diniy ekstremizm va terrorizm tahdidlaridan himoya qilish, yoshlarni salohiyatini namoyon qilish




uchun zarur sharoitlar yaratish kerakligini ta'kidlab, Prezident Shavkat Mirziyoyev BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqishni taklif qildilar.

Ikkinchidan, Prezidentimiz o'z nutqlarida islom dinining insonparvarlik ahamiyatini ochib berdi: "Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz. Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo'rvonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab avaylashga da'vat etadi".

Eng asosiy takliflardan yana biri bu – "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolutsiyani qabul qilish bo'yicha ilgari surilgan g'oyadir.

Oradan ko'p vaqt o'tmasdan 2018-yil 12-dekabrda a'zo davlatlarning bir ovozi va 50 dan ortiq davlatlarning hammuallifligida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolutsiyasi qabul qilindi. Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iborat. Ushbu rezolutsiya bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqlarini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan. Bundan tashqari yurtimizda din va dindorlarga berilayotgan e'tibor qonunlarda o'z ifodasini topgan. Hozirda yurtimizda 16+1 ko'rinishidagi diniy konfessiyalarning faoliyat yuritayotganligi ta'kidlash lozim. O'zbekistonda 2200 dan ziyod diniy tashkilotlar ham mavjuddir. 1998-yil "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi" qonunda bu sohaga doir barcha moddalar joy olgan. Asosiy qonunning 31-moddasida: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e'tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarning majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi" – deyiladi.

BMT tomonidan 1995 yil – Xalqaro bag'rikenglik yili deb e'lon qilindi va uni amalga oshirilishida muvofiqlashtiruvchi tashkilot – YUNESKO deb topilgan. Shu yili YUNESKO Bosh konferensiyasi "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi"ni qabul qildi. Deklaratsiyada har yili 16-noyabrni Xalqaro bag'rikenglik kuni sifatida nishonlash, unda maxsus tadbirlar va dasturlar tashkil etib, o'quv muassasalari, hukumatlararo va nohukumat tashkilotlari, axborot vositalarining birgalikdagi sa'y harakatlari bilan fuqarolar o'rtasida bag'rikenglik g'oyalarini tarqatishga taklif etdi.



YUNESKO ustavining muqaddimasida: "Tinchlik intellektual va ma'naviy birdamligiga tayanishi lozim" ligini eslatadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida "har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega"(18-modda), "e'tiqodlar erkinligi va ularni erkin ifoda qilish"(19-modda) va "barcha xalqlar, irqiy va diniy guruhlar o'rtasida bir-birini tushunish, o'zaro xayrihohlik va do'stlikka xizmat qilish kerak"ligini(26-modda) ta'kidlaydi.

Xalqaro huquqiy hujjatlarda yuqoridagidek qoidalar joy olgan va ksenofobiya (dindan, millatdan, etnik toifalardan qo'rqish), diskriminatsiya (kamsitish)lar keskin tanqid ostiga olinadi. Islom dinida tinchlik va osoyishtalikka bo'lgan e'tiborning yuqori bo'lishi bilan birga, bag'rikenglik eng asosiy g'oyalardan biri ekanligini, islom juda ham mo'tadil din ekanligini bir qancha oyat va hadislar orqali tushunish mumkin. Bugungi kunda islom niqobi ostida faoliyat ko'rsatayotgan mutaasib kuchlar, ijtimoiy, milliy xususiyati qaysi davlatga mansubligidan qat'iy nazar, barcha musulmonlarning ma'naviy birligi haqidagi tasavvurlarga tayanib, ularni yagona maqsadga birlashtirish g'oyalarini ilgari suradilar. Ma'lumki, milodiy VII-VIII asrlarda Islom dini dunyoning ko'plab mintaqalari bo'ylab yoyilishida dinning bag'rikenglik ruhida ekanligi asosiy o'rinni egallagan. Insonlar ongli ravishda dinni qabul qilganlar.

"Moida" surasining 8-oyatida "Bir qavmni yomon ko'rishingiz sizlarni ularga nisbatan adolatsizlik qilishga olib bormasin. Adolat qiling" – deyilgan. Yuqoridagi oyatning mantiqiy davomi sifatida "Mujodala" surasining 8-oyati karimasida "Alloh sizlarni diniy urush qilmagan va diyorlaringizdan chiqarmaganlarga yaxshilik va adolatli muomala qilishdan qaytarmas.

Albatta, Alloh adolat qiluvchilarni yaxshi ko'radir" – deyilganini ko'rish mumkin. Tafsir kitoblarida bu oyatni o'zga din vakillariga doimo yaxshi munosabatda bo'lish kerakligini uqtiradilar. Bundan tashqari Qur'oni Karimning Baqara, Yunus, Hud, Nahl suralarida odamlarning dastlab bir millatga mansub bo'lganliklari, keyin Alloh ularni bir-birlarini yaxshiroq bilib, tanib yurishlari uchun turli xil millat va elatlarga bo'lganligi bir necha bor aytiladi. Payg'ambar (s.a.v.) Madinaga hijrat qilganlaridan so'ng u yerdagi yahudiylar bilan ahdnoma tuzib, tinch-totuv va jamiyat manfaatlari uchun hamkorlikda yashash asoslarini belgilab, unga amal qilib yashaganlar. Muhammad (s.a.v.) boshqa din vakillari bilan shaxsan yaxshi aloqada bo'lar, ularga go'zal muomala qilar edilar. Jumladan, ularga hadyalar berib, ular tomonidan berilgan hadyalarni qabul qilardilar. U zotning boshqa din vakillari tomonidan hadya qilingan kiyimlarni kiyib yurganlari bir necha hadislarda zikr etiladi. Diniy bag'rikenglik borasida Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) nafaqat islom ummatiga balki, butun insoniyatga

o'rnak bo'ldilar. Hattoki, Najron nasroniylariga masjidning bir tomonida ibodat qilishga ijozat berdilar. Payg'ambar Muhammad (s.a.v) vafotlaridan keyin ham, u Zot boshlab bergan (diniy bag'rikenglik, dinlararo hamkorlik, o'zaro muloqot) boshqa din vakillari bilan yaxshi muomalada bo'lish an'anasi uzviy va izchil tarzda davom ettirildi. Masalan, Hazrati Umar (r.a.)ning davrlarida fath qilingan o'lkadagi Iliyo ahli nasroniylariga o'zlari so'raganidan ham ko'proq imkoniyatlar berganlar. Shunda nasorolar patriarxi hazrati Umar (r.a.)ga o'sha yerning bosh kanisasida asr namozini o'qib olishi mumkinligini bildirganida: "Men bu yerda namoz o'qisam, keyin boshqa musumonlar ham Umar namoz o'qigan joyda biz ham namoz o'qiyimiz, deya sizlarni bezovta qiladilar", - deb u yerda namoz o'qimaganlar. Mana bu ham bag'rikenglikning hayotdagi va turli dinlar o'rtasidagi totuvlik tamoyili ekanligini isbotlovchi omildir. O'zbekiston ming yillar davomida Buyuk Ipak yo'lining muhim qismi bo'lib kelgan. Bu yerda savdo-sotiq, ilm-fan, madaniyat markazlari taraqqiy etgan. Ularning rivojlanishida xalqimizga xos bag'rikenglik, mehmondo'stlik, o'zga madaniyat vakillariga hurmat tuyg'ulari asosiy omillardan bo'lgan. Shuning uchun o'lkamizda turli xalqlar urf-odat va an'analari o'zaro uyg'unlikda rivojlanib borgan. Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasidagi nutqi, xususan, «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyutsiyaning qabul qilinishi dunyo mamlakatlarida tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikning asosi bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz.

